



CHINGIZ AYTMATOVNING “SOHIL YOQALAB CHOPAYOTGAN OLAPAR” QISSASIDA AFSONAVIY OBRAZLARING TARJIMADA BERILISHI

Pardayev Ulug'berdi

Toshken shahar Chilonzor tumanida joylashgan


Hilol edu tillarni o'qitish markazi

Turk tili o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7233522>

So'z qachon mo'jizaga aylanadi? Qachonki unga mohir zargar sayqal bersa, jilolay olsa. Buyuk qirg'iz adibi Chingiz Aytmatov ham ana shunday hotamitoy inson, yozuvchi edi. Uning “Sohil yoqalab chopayotgan Olapar” qissasini ilk bor o'qiganimda o'zimni xuddi Oxoto dengizi sohillarida yurgandek his etgandim. Keyin Oqsoqol O'rxon, Emrayin, Milxun va ochiq dengizga birinchi bor chiqayotgan, tag'inam ov uchun chiqayotgan Kirisk bilan bitta qayiqda edik. Asarni o'qish asnosida nimagadir Kirisk g'oyib bo'lib qoldi. “Sohil yoqalab chopayotgan Olapar” adibning boshqa asarlariga qaraganda ancha og'ir o'qiladi. Chunki uning bosh qahramoni Kirisk birin-ketin yaqinlaridan ajraladi. Avvaliga bobosi, keyin amakisi, so'ngra esa otasi aynan tabiiy ofat yo kasallik, falokat yoki dushman bilan olishuv natijasida emas chorasizlikdan, bundan ortiq so'ngsiz azob-uqubatga muhtalo bo'lmaslik, yanayam boshqacha aytganda, o'n gulidan bir guli ochilmagan, hali hayot atalmish buyuk ne'matni yaxshi anglamagan Kirisk uchun o'zlarini qurbon qiladi. “Ko'k sichqoncha, suvingdan ber!” — onasi o'rgatgan mana shu ajoyib so'zni bola tinmay takrorlay boshladi: “Ko'k sichqon, suvingdan ber! Ko'k sichqoncha, suvingdan ber!” Garchi hech qanday mo'jiza yuz bermasa ham bola hadeb yalinib-yolvorib ko'k sichqonni chaqiraverdi. Endi bu — bolaning umid-ishonchi va tashnalikka qarshi birdan-bir chorasi bo'lib qoldi..”.

Aynan onasi o'rgatgan mana shu qo'shiq bolaning tirik qolishiga umid beradi. Asarlarida mifologiyani ustalik bilan qo'llanib, mifologik afsonalar yordamida hikoya qilishning yangi usulini ishlab chiqqan Aytmatov, o'zining deyarli barcha asarlarida mifologik obrzalar orqali xalqining turmush tarzini ifodalashga harakat qilib, joriy tuzumning xalqiga bo'lgan ta'sirini tasvirlashga harakat qilgan desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Adibning “Sohil yoqalab chopayotgan Olapar” qissasida ham mifologik hikoylarga duch keldik. Bu asarini yaratilish afsonasi bilan boshlaydi yozuvchi: dengiz bilan tuproqning bir birlari bilan bo'lgan urushini hikoya qilarkan yozuvchi o'zi mustaqil yaratilish mifini ishlab chiqqan. Asarda mifologik obraz sifatida Luvra nomidagi o'rdakni olishimiz mumkin. Bu obraz qolgan obrazlarda bo'lgani kabi yaxshilik timsoli bo'lib kelgan. Asar rus tilida yozilgan bo'lib bo'lib, g'oyat ta'srili, insonga estetik zavq





bagʻshida qiloladi. Asarni oʻzbek tiliga Asil Rashidov va Mahkam Mahmudovlar tarjima qilishgan. Umuman olganda tarjima qilish jarayonida tarjimonlar koʻzlagan maqsadlariga erisholishgan deb aytishimiz ham mumkin. Ana endi bevosita asl nusxa va tarjimalarga toʻxtalib oʻtadigan boʻlsak:

“А ведь когда-то все было по-иному. Теперь такое невозможно даже представить себе, об этом теперь никто знать не знает, не догадывается даже, что, не будь в ту издавнюю пору утки Лувр, мир мог бы устроиться совсем по-другому — суша не противостояла бы воде, а вода не противостояла бы суше. Ведь в самом начале — в изначале начал — земли в природе вовсе не было, ни пылиночки даже. Кругом простиралась вода, только вода. Вода возникла сама из себя, в круговерти своей — в черных безднах, в безмерных пучинах. И катились волны по волнам, растекались волны во все стороны бесстороннего тогда света: из ниоткуда в никуда ”.

Asardan olinga ushbu parchani tarjimonlarimiz shunday tarjima qilishgan:

“Qadim-qadimlarda ahvol butunlay boshqacha edi. Oʻsha vaqtlarni endi tasavvur qilib boʻlmaydi, qadimgi oʻrdak voqeasi haqida hozir hech kim hech narsa bilmaydi, bilish uyoqda tursin, hatto bu hodisani xayoliga ham keltirmaydi, mabodo oʻsha kadim zamonlarda Luvr degan oʻrdak boʻlmaganida olam allaqanday, boshqacha tarzda tuzilib, hozirgiday, quruqlik suvga, suv esa — quruqlikka qarshi turmagan boʻlardi. Axir, olamning boshlanishida — azal-azallarda — tabiatda quruqlik uyoqda tursin, hatto gard ham yoʻq edi. Butun atrof suvdan, faqat suvdan iborat edi. Suv oʻz-oʻzidan qorongʻi tubsizliklardan, cheksiz girdoblardan paydo boʻlgan, soʻng atrofga tarqala boshlagan. Shundan boshlab, toʻlqinlar toʻlqinlarga urilib, tarafsiz olamning hamma taraflariga oqa boshlagan: suvning qayoqdan kelib, qayoqqa borishini hech kim bilmagan ”.

Ushbu parchaning oʻzida juda ham koʻp tabiat tafsifi, sifatlovlar uchramoqda. Aytishimiz mumkinki, tarjimonlar bazi oʻrinlarda tamoman kitobxonga tushunarli boʻlishi maqsadida oʻzbekchalashtirishgan. Bazi oʻrinlarda soʻz qoʻshish, bazan esa tamoman gapni qurilishi oʻzgartirish kuzatilgan deyishimiz mumkin. Parrandaga nomi esa atoqli ot sifatida oʻz holicha tarjima qilingan. Avvalgi tarjimada koʻrganimiz yaʼni “Oq Kema” qissasida koʻrganimiz baʼzi atoqli otlarni oʻzbek tili qonun qoidalariga muvofiq talaffuz meʼyorlariga muvofiq oʻzgartirgan boʻlsa, bu asarda oʻz holicha Luvr deb qoldirgan tarjimonlar. Aslida atoqli otlar, joy nomlarini tarjima qilishda yakdil bir fikriga kelinmaganligini koʻrishimiz mumkin. Yetuk tarjimashunos olimlarimizni yozgan ilmiy ishlariga, risolalariga qaraydigan boʻlsak. Har bir olimimiz oʻz fikrini bayon qilgan, qarashlarini bildirgan. Bu obraz bilan aloqalar unchalik koʻp sahnalar yoʻqdek





asarda, ya'ni tasvirlari kam berilgan, shuning uchun bu obraz bilan bo'g'liq sahnalarni tarjimonlarimiz ustalik bilan, mahorat bilan tarjima qilishgan. Ana endi turkcha tarjimasiga kelsak:

“Oysa bir zamanlar bambaşkaydı günler. Şimdi o günlerin nasıl olduğunu söylemek çok zor. Kimse bir şey bilmiyor. Hatta Lura adındaki dişi ördek olmasaydı, dünyanın bambaşka olacağını kimse aklına bile getirmiyor: O ördek olmasaydı, kara ile deniz birbirlerine karşı, birbirlerine düşman olmayacaktı. Çünkü ta başlangıçta, başlangıçların başında, doğada kara diye bir şey yoktu, bir evlek toprak bile yoktu. Her yer sularla kaplıydı. Su, su... her taraf su! Dünya kendi ekseninde dönerken su kendiliğinden ortaya çıkmıştı: Dipsiz derinliklerden, karanlık uçurumlardan... dalgalar birbiri ardınca uçsuz bucaksız evreni kuşatmış, dört bucağı kaplamıştı. Dalgaların çıkıp geldiği bir yer olamadığı gibi, gidip yoğalacağı bir yer de yoktu ”.

Ushbu parcha uch tilda uch xildek go'yo. Afsonaning kirishi diqqatimizni tordi. A ведь когда-то все было по-иному—deya afsona boshlaydi, o'zbekchaga qilingan tarjimoni olsak, tarjimonlar tamoman bu gapni qayta qurganligini ko'rdik. Qadim-qadimlarda ahvol butunlay boshqacha edi. To'g'ri, avvalo kitobxon uchun tushunarli, ta'sirli bo'lishi kerak, ammo konteksttan ham uzoqlashmagan xolda tarjima qilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Hatta Lura adındaki dişi ördek olmasaydı, dünyanın bambaşka olacağını kimse aklına bile getirmiyor asliyatda nomi zikr qilingan o'rdak Luvr, tarjima jarayonida tamoman boshqa shakilda, boshqa nomga aylantirilganligiga shohid bo'ldik. Ikki undoshning yonma yon kelmasligi sababli turk tilida, talaffuz qiyinchiligidan halos bo'lish uchun tarjimon shu shakilda tarjima qilgan deb aytishimiz mumkin. Bizningcha Lura va Luvr bir biriga to'g'ri keladigan va bir birini to'ldirishi mumkin bo'lgan transformatsiya emas. Chunki afsonaviy obraz nomi bo'lganli bois o'z ko'rinishida qoldirilishi kerak, chunki bu afsona nafaqat Aytmatov asarlarida balki, tojik, qozoq, adabiyotida ham uchrashi mumkin bu nom. “Luvr o'rdak esa, ha, hozir ham har kuni tepamizdan g'ag'illab to'dasi bilan uchib o'tadigan o'sha o'rdak ilgari dunyoda yolg'iz, yakka o'zi yashardi. U samoda tanho uchib yurarkan, tuxum qo'yishga ham tangaday joy topolmasdi. Chunki olamda suvdan boshqa hech bir narsa, uya qurish uchun hatto birorta xas ham yo'q edi”. Parchani g'oyat tushunarli tarjima qilinib o'quvchiga havola qilingan. Ve dişi ördek Lura, hani şu herkesin bildiği, bugün bile başımızın üzerinden g'aklayarak sürüler halinde uçan yassı gagalı ördek, yapayalnız uçup duruyordu havada. Yumurtasını bırakacağı bir kara parçası arıyor, ama bulamıyordu. Sudan başka bir şey yoktu evrende. Yuva yapabileceği ne bir kemiş, ne ufacık bir saz vardı. Bu





esa turk tiliga qilingan tarjimasini. Bir o'rdak timsoli orqali hayotning kelib chiqishini, paydo bo'lishini bayon qilgan Aytmatov, voqealarni shu o'rdak atrofida jamlay olgan, yerning, suvning, osmonning qolaversa boshqa narsalarni shu o'rdakka bog'lab shakillantirganligini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aytmatov Ch. Oq kema. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.
2. Aytmatov Ch. Sohil yoqalab chopayotgan Olapar. – Toshkent: Sharq nashryoti, 2018.
3. Айтматов. Ч. Белый пароход Молодая гвардия. Москва, 2012.
4. Пегий пес, бегущий краем моря. – Красноярск: Advanced Achievement Books Publishers Ltd., 2010.
5. Aytmatov C. Beyaz Gemi. – İstanbul: Ötüken Neşriyat, 2017.
6. Aytmatov C. Deniz kıyısında koşan ala köpek. – İstanbul: Ötüken Neşriyat, 2017.

